

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA SANOQ SONLAR VA ULARNING O'XSHASH VA FARQLI JIHALARI

Maxmudjonova Shodiya Adxam qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi.

Tel: +998977510733

Umurzakova A.U.

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11536309>

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilida “son” o'zbek tili grammatikasiga o'xshab alohida so'z turkumi sifatida o'rganilmasa-da, arab grammatikasida uning o'ziga xos xususiyatlari bor ekanligi ko'rsatib berilgan. Bunda o'rganilgan mavzu o'zbek tili bilan solishtirilib, o'xshash va farqli tomonlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: “adad”-son, “ma'dud”, “tamyiz”-sanalmish, “adad mufrad”-sodda son, “adad murakkab”, “adad uqud”, “adad ma'tuf”.

NUMBERS IN ARABIC AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR SIMILARITIES AND DIFFERENCES

Abstract. Although this article does not study “number” in Arabic as a separate word group, as in Uzbek grammar, it does show its specific features in Arabic grammar. In this case, the studied topic is compared with the Uzbek language, showing similarities and differences.

Keywords: “adad”-son, “ma'dud”, “tamyiz”-sanalmish, “adad mufrad”-sodda son, “adad murakkab”, “adad uqud”, “adad ma'tuf”.

ЧИСЛА, ИХ СХОДЫ И РАЗЛИЧИЯ В УЗБЕКСКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Хотя «число» в арабском языке не изучается как отдельная группа слов, как в узбекской грамматике, показано, что оно имеет свои особенности в арабской грамматике. Изученный предмет сравнивается с узбекским языком и показаны его сходства и различия.

Ключевые слова: «адад»-число, «мадуд», «тамиз»-счетное, «адад муфрад»-простое число, «адад мукаб», «адад укуд», «адад матуф».

Barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek va arab tillarida ham son tushunchasi mavjud va ikkisi uchun ham bir xil ta'rif beriladi ya'ni son shaxs va narsaning sanog'ini, tartibini, miqdorini bildirib, nechta?, qancha?, nechanchi? kabi so'roqlarga javob bo'la oladigan so'zlarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida sonlar ikki turga bo'linadi:

- ✓ 1. Miqdor sonlar.
- ✓ 2. Tartib sonlar.

Miqdor son deb, shaxs va narsaning miqdorini, sanog'ini anglatuvchi sonlarga aytiladi.

Masalan: bir, o'n, yuz, ming, to'qson to'qqiz, uch ming to'rt yuz va hokazo.

Tartib sonlar esa o'z nomidan bilish mumkin bo'lganidek, shaxs yoki predmetning tartibini bildirib, berilgan songa *-inchi*, *-nchi* qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: birinchi, uchinchi, yigirmancha va hokazo. Tartib sonlar raqam bilan yozilganda *-inching*, *-nchi* qo'shimchasi o'rniga (-) chiziqchadan foydalaniladi.

1-sinf - (birinchi sinf)

35-qator - (o'ttiz beshinchi qator)

1999-yil - (bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizinchi yil) kabi.

Miqdor sonlar 6 guruhga bo'linadi va ular quyidagilardan iborat:

1.Sanoq son.

2.Dona son.

3.Chama son.

4.Jamlovchi son.

5.Taqsim son.

6.Kasr son.

O'zbek tilidan farqli ravishda, arab tilida so'z turkumi uch qismga ya'ni, ism, fe'l va harf so'z turkumlariga bo'linadi.

Arab tilida ism (اسم) so'z turkumiga o'zbek tilidagi ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe'lning harakat nomi(masdar), sifatdosh kabi funktsional formalari, ayrim ko'makchilar, modal so'zlar kiradi. Shunday qilib, o'zbek tilidagi son so'z turkumi arab tilida ism(اسم) so'z turkumida alohida o'rganiluvchi bir bo'lim hisoblanadi. Son deb, shaxs va predmetning miqdori, sanog'i, tartibini ifodalaydigan so'zlarga aytiladi. Shaxs yoki narsaning sanog'ini bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi.

Masalan: *ikki, uch, besh, yigirma* kabi.

Sonning bunday qoidasi arab tilida ham o'z aksini topadi. O'zbek tilida son boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi, mustaqil so'zlardan tarkib topgan. Ularning fe'liy o'zaklari mavjud emas. O'zbek tilida sonlar ko'pincha arab (1, 2, 3, 9) va rim (I, IV, IX, X) raqamlari bilan yoziladi. Arab tilida esa son fe'l o'zaklaridan yasaladi. Arab (٨ ٧ ٦ ٥ ٤ ٣ ٢ ٠ ١) tilida sonlar hind raqamlari bilan yozi (⁹nadi).

Arab tilida sonlar tuzilishiga ko'ra turlari quyidagicha:

1. Sodda sonlarga 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,100,1000 sonlari kiradi.

الْعَدَدُ الْمَفْرُودُ - وَاحِدٌ، اثْنَانِ، ثَلَاثَةٌ، أَرْبَعٌ، سَبْعَةٌ، تِسْعٌ، عَشْرَةٌ، مِئَةٌ، أَلْفٌ

2. Murakkab sonlarga 11,12,13,14,15,16,17,18,19 sonlarini misol qilishimiz mumkin.

الْعَدَدُ الْمُرَكَّبُ - أَحَدُ عَشَرَ، اثْنَتَا عَشَرَ، ثَلَاثَةَ عَشَرَ

3. Yaxlit o'nlik sonlarga 20,30,40,50,60,70,80,90 lar misol bo'la oladi iborat.

الْعَدَدُ الْعُقُودُ - عِشْرُونَ، ثَلَاثُونَ، أَرْبَعِينَ، سِتِّينَ، ثَمَانُونَ، تِسْعُونَ

4. Bog'langan sonlarga 21,22,23,24,25,26,27,28,29,31...39...99 sonlari kiradi.

الْعَدَدُ الْمَعْطُوفُ - وَاحِدٌ وَعِشْرُونَ، اثْنَانِ وَثَلَاثُونَ، ثَمَانٍ وَتِسْعِينَ

Sanoq sonlar noaniq so'zlar turiga kiradi. Masalan, "10 ta bog'lading" deyilsa, bog'langan 10 ta narsani nima ekanligi noma'lum bo'lib turibdi. Mana shu noma'lumlikni ketkazish uchun, sanalayotgan narsa(sanalmish) eslatib o'tilsa,10 raqamidagi noaniqlik ketadi. Masalan, "10 ta kitob sotib oldim". Arab tilida son-"adad", sanalmish esa "ma'dud" deb ataladi.

Jins kategoriyasi sonlarga ham qo'llaniladi. Muzakkar (erkak) jinsidagi sonni muannas(ayol) jinsiga o'tkazish uchun aksariyat hollarda son oxiriga (ة) belgisini qo'yish bilan yasaladi. Masalan:

واحد - واحدة

اثنان - اثنتان

اربع - أربعة
عشر - عشرة

Arab tilida sanoq son va sanalmish alohida qoidalar asosida birikadi. Bir "واحد" va ikki "اثنان" sanalmish bilan kelganda kuchli ta'kidlash ma'nosini bildiradi. 3 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar sanalmish bilan kelganda avval son, keyin esa sanalmish keladi. Son doim sanalmishning birlik sondagi jinsiga teskari jinsda bo'ladi, sanalmishning o'zi esa doimo ko'plik shaklida va jar kelishigi (qaratqich kelishigi)da keladi. Masalan:

أربعة كتب
خمسة أقلام
سبعة دفاتر

Ushbu misollarda sanalmishlarning barchasi birlik shaklida muzakkar jinsda keladi, shuning uchun sonlar sanalmishning birlikdagi shakliga teskari jinsda, ya'ni muannas (ayol) jinsida qo'llaniladi. birikmasida esa خمس غرف so'zining birligi muannas jinsda (ayol) bo'lgani uchun son teskari jinsda qo'llanilmoqda.

3 dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni aniq shaklda ifodalash uchun sanalmishga artikli qo'shib yoziladi. Masalan:

كتب ابي تسعة مكاتيب

Xulosa qilib aytganda, son so'z turkumining arab va o'zbek tillarida farqli hamda o'xshash tomonlari mavjud. Ular til tarixi hamda kelib chiqishining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

REFERENCES

1. Abdujabborov A. Arab tili. – T.: 2007.
2. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. –T.: 2015.
3. Amin Abdulg'oniy. An-nahv al-vodih. Qohira, 2010.
4. As- Sayyid ibn Husan ad-Dib. Al-hivar fi sharh al-ajrumiyya. Iskandariya, 2015.